

INNOVATIONS IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasining mohiyati va zarurati

Aminov Fazlitdin Baxadirovich

Сущность и необходимость концепции перехода к зелёной экономике

Аминов Фазлитдин Бахадирович

The essence and necessity of the concept of transition to a green economy

Aminov Fazlitdin Bakhadirovich

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari, uning iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli, shuningdek, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati tahlil qilingan. Muallif yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy omillari, tamoyillari va ijtimoiy-iqtisodiy foydalarini ochib beradi. Shuningdek, O'zbekistonda bu yo'nalishdagi mavjud holat raqamlar orqali yoritilgan.
- **Kalit so'zlar:** "yashil" iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, resurs tejash, iqtisodiy transformatsiya.
- **Аннотация.** В статье анализируются теоретические основы концепции «зеленой» экономики, ее роль в обеспечении экономической и экологической устойчивости, а также необходимость перехода к зеленой экономике в условиях Узбекистана. Автор раскрывает ключевые факторы, принципы и социально-экономические преимущества перехода к зеленой экономике. Текущая ситуация в этой сфере в Узбекистане также иллюстрируется цифрами.
- **Ключевые слова:** «зеленая» экономика, устойчивое развитие, экологическая безопасность, ресурсосбережение, экономическая трансформация.
- **Abstract.** The article analyzes the theoretical foundations of the concept of a "green" economy, its role in ensuring economic and environmental sustainability, as well as the need for a transition to a green economy in the conditions of Uzbekistan. The author reveals the main factors, principles and socio-economic benefits of the transition to a green economy. The current situation in Uzbekistan in this direction is also illustrated by figures.
- **Keywords:** "green" economy, sustainable development, environmental safety, resource conservation, economic transformation.

KIRISH

XXI asrda umumiy taraqqiyot yo'lini aniqlab olish, barcha xalqlarning manfaatlariga birday xizmat qiladigan maqsadlarni belgilash va unga intilishga kuchli ehtiyoj paydo bo'ldi. Shundan kelib chiqib, BMT, dunyo mamlakatlari, ularning parlamentlari va fuqarolik jamiyati institutlari, biznes

hamjamiyatlari o'rtasidagi uzoq davom etgan "global maslahatlashuvlar" natijasida barqaror rivojlanish yo'li – bashariyat uchun yagona to'g'ri yo'l, degan umumiy xulosaga kelinib, uning ustuvor mezonlari belgilab olindi [1]. Jahonda milliy iqtisodiyotlarni barqaror taraqqiyot tendensiyalari asosida rivojlantirishda yashil iqtisodiyot muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy omil sifatida ko'rilmogda. Iqtisodiy

rivojlanishning yangi shakli sifatida yashil iqtisodiyot mam-lakatlar va ularning turli mintaqalarining barqaror rivojlanishida, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishda, resurslardan tejankor va samarali foydalanishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda, turdosh tarmoqlar taraqqiyotida yuqori daromad olishga imkoniyat yaratmoqda. Shu munosabat bilan, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taklif qilingan "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi so'nggi yillarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. UNEP tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, yashil iqtisodiyot — bu inson farovonligi va ijtimoiy adolatni oshirishga qaratilgan, shu bilan birga ekologik xavf va resurs tanqisligini keskin kamaytiradigan iqtisodiy modeldir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlardan A.M.Rodrigues, [3], D.Zhang, M.Mohsin, R.Sho'derholm, A.Kasztelan, L.Georgeson, M.Maslin, M.Poessinouw, N.Norouzi, MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida N.V.Pakhomova [4], K.K.Rikhter, G.B.Malyshkov, E.A.Lyaskovskaya, K.A.Grigor'eva, V.A.Poxvoshchev, M.M.Davletova, N.N.Yashalova, V.Podgorniy, F.A.Shulenbaeva J.B.Smagulova, A.Ye.Muxanova, G.I.Musaeva va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonlik A.V.Vahobov [5], SH.X.Hojiboqiev, T.K.Iminov, A.Isadjanov, E.A.Mo'minova, kabi olimlarning tadqiqotlarida "yashil iqtisodiyot"ning xususiyatlari, uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati masalalari bayon qilingan.

N.To'xliyev [6], T.M.Axmedov, A.T.Yusupov, A.M.Sodiqov, A.A.Soliyev, A.A.Qayumov, F.Egamberdiyev, A.A.Abdusalayamov, A.B.Nizomov, B.Ro'zmetov, A.A.Qulmatov kabi iqtisodchi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida mintaqalar iqtisodiyotini samarali tashkil etish, barqaror va kompleks rivojlantirish masalalarining nazariy-metodologik asoslarini, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududning resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda atrof-muhit muhofazasini iqtisodiy jihatdan to'g'ri tashkil etish masalalarini tadqiq etishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi sharoitida "Yashil" iqtisodiyotga o'tish zaruriyati asoslangan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan "Yashil" iqtisodiyotga o'tish tamoyillari va amalga oshirish dastaklari qiyosiy tahlil etilgan. "Yashil" iqtisodiyotning axborot resurslari va "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining dolzarb masalalari tadqiq qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

«Yashil iqtisodiyot» konsepsiyaning tarafdorlari hozirda ustunlik qilayotgan iqtisodiy tizim to'liq takomillashmagani va ayrim kamchiliklarga egaligini ta'kidlashadi. Ayni damda iqtisodiy taraqqiyotning "qo'ng'ir iqtisodiyot" deb nomlanuvchi ushbu modeli rivojlanishda ko'plab natijalarni berib, iqtisodiy taraqqiyotga, insonlarning turmush tarzini yaxshilashga erishayotgan bo'lsada, biroq, mazkur iqtisodiy tizimning salbiy ko'rsatkichlari, natijalari ancha kattadir. Bular, birinchidan, iqlim o'zgarishi, cho'llashuv, bioxilma-xillikning pasayishi, suv va havoning ifloslanishi hamda boshqa shu kabi ekologik muammolar kuchayishi, ikkinchidan, tabiat kapitalining ayovsiz ishlatilishi natijasida tugab borayotgani, uchinchidan, kambag'allikning keng qamrovli rivojlanishi, to'rtinchidan, ichimlik suvi, oziq-ovqat va energiya tanqisligi, beshinchidan, davlatlar va aholi o'rtasida boy va kambag'al qatlam tavofutning keskin ortishida va boshqalarda kuzatilmoqda.

"Yashil iqtisodiyot"ga jahonning ko'plab olimlari va turli tashkilotlari qator ta'riflarni ishlab chiqqan. Ta'riflarda ayrimlar bu konsepsiyani iqtisodiy tizim deyishsa, kimdir iqtisodiy rivojlanish modeli, kimdir iqtisodiy rivojlanish usuli sifatida izohlaydi.

Ko'plab adabiyotlar va manbalarda "yashil iqtisodiyot"ga berilgan ta'riflarni tadqiq etgan holda, hozirda ushbu konsepsiyaning mazmuni va mohiyatini chuqur anglagan holda o'zining mualliflik ta'rifini ishlab chiqdi va uni quyidagicha tahrirlaydi: "yashil" iqtisodiyot – barqaror rivojlanishga, qaror qabul qilishda kompleks yondashuvga, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga tayanib, resurslardan samarali foydalanish evaziga hayot darajasini yaxshilashga asoslangan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kelajak avlodga tabiiy muhitni asrab-avaylab yetkazishni nazarda tutuvchi, iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeli. "Yashil" iqtisodiyotni joriy qilish orqali YaIM o'sishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishish bilan bog'liq islohotlarni quyidagi to'rtta yo'nalishda amalga oshirish mumkin:

□ "yashil" iqtisodiyotga o'tish tabiiy va inson kapitali iste'mol resurslarini oshirishga qodir, ya'ni, tabiiy kapitalni samarali boshqarish va inson salohiyati oshishi evaziga tabiiy atrof-muhitning holati yaxshilanishi, buning oqibatida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi;

□ bu o'zgarishlar ijobiy tarkibiy o'zgarishlar bilan bir qatorda tarkibiy, bazaviy tarmoqlarda, jumladan, energetika, qurilish, qishloq xo'jaligi, maishiy soha va boshqalarda katta miqdordagi investitsiyani talab qiladi, oqibatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida samaradorlikning ortishiga olib keladi;

□ "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida mustaqil ravishda investitsiyalar ajratiladi, asosan, suv ta'minoti tizimi, kanalizatsiya tarmoqlari, jamoat transporti kabi

muqobil energiya talab qiluvchi tarmoqlarga yo'naltiriladi;
□ "yashil" iqtisodiyotga o'tish innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, buning oqibatida raqobat muhiti kuchayadi, Innovatsion samara ortadi.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy adolatni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan yondashuvdir. Uning mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Barqaror rivojlanish "Yashil" iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanishni va kelajak avlodlar uchun muhitni saqlashni nazarda tutadi. Bu, iqtisodiy o'sishni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshirishni anglatadi.
2. Energiya samaradorligi. "Yashil" iqtisodiyot energiya sarfini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantiradi. Bu, energiya iste'molini optimallashtirish va karboniziyani kamaytirishga yordam beradi.
3. Resurslarni boshqarish. "Yashil" iqtisodiyot tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va ularni qayta ishlashga urg'u beradi. Bu, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan.
4. Ijtimoiy adolat. "Yashil" iqtisodiyot ijtimoiy tenglikni ta'minlashga ham e'tibor qaratadi, ya'ni iqtisodiy o'sish jarayonida barcha qatlamlarning manfaatlarini inobatga olishni

anglatadi.

5. Innovatsiyalar: "Yashil" iqtisodiyot yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu, ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Umuman olganda, "yashil" iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni birlashtirgan barqaror rivojlantirish modelidir.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning zarurati quyidagi asosiy omillar bilan izohlanadi:

1. Iqlim o'zgarishi. Global haroratning o'sishi qishloq xo'jaligi, suv resurslari va salomatlikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
2. Resurs tanqisligi. Qayta tiklanmaydigan resurslar zahirasi tez sur'atda kamaymoqda.
3. Atrof-muhit ifloslanishi. Sanoat va transportdan chiqayotgan zararli gazlar havo va suv sifatini yomonlashtirmoqda.
4. Ijtimoiy barqarorlik ehtiyoji. "Yashil" iqtisodiyot yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy va ekologik foydalari aks ettirilgan.

1-jadval

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy foydalari

YO'NALISH	AN'ANAVIY IQTISODIYOT	"YASHIL" IQTISODIYOT
Energiya manbasi	Qayta tiklanmaydigan (ko'mir, gaz, neft)	Qayta tiklanuvchi (quyosh, shamol, biogaz)
Atrof-muhitga ta'siri	Yuqori ifloslanish	Past ifloslanish
Bandlik	An'anaviy sohalarida chegaralangan	Yangi "yashil" ish o'rinlari yaratiladi
Resurs sarfi	Ko'p sarflanadi	Tejamkorlikka asoslangan
Innovatsiyalar	Past darajada	Yashil texnologiyalar joriy qilinadi

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari

2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi [7].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilda mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya ulushi umumiy ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 12 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2030 yilga borib 25 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda global muammolar, jumladan iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning tugashi va ekologik xavflar bizni yangi iqtisodiy yondashuvlarni izlashga undayapti. "Yashil" iqtisodiyot – bu har qanday faoliyatda barqarorlik, ekologik samaradorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish borasida quyidagi ilmiy xulosalar qilish mumkin:

1. «Yashil» iqtisodiyotda jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bilan bir qatorda tabiiy-ekologik hodisalarni ham tadqiq qiladi, ularning o'zaro bog'liqlikdagi natijalarini o'rganadi, shu sababdan, bu jarayonlarni tadqiq qilishda, mazkur muammoni hal etishda ularning integratsiyasini va nazariy-metodologik mexanizmlarini to'liq namoyon qiluvchi yangi nazariy-metodologik asos, ya'ni ekotizimli yondashuv taklif qilinadi.
2. O'zbekiston sharoitida, dastlabki davrda yashil iqtisodiyotni joriy qilish va rivojlantirish yo'nalishlari sifatida quyidagilar tavsiya qilinadi: chiqindilarni utilizatsiya qilish; tabiiy resurslardan foydalanish; energetika; qishloq va suv xo'jaligi, jamoat va shaxsiy transport, yashil texnologiyalar va yashil ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirish, ekologik madaniyatni kuchaytirish.
3. O'zbekistonda mintaqalarni "yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanmagan, iqtisodiyot tarmoqlarining ayrim sohalari bo'yicha "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, yashil o'sishga erishish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini inobatga olish taklif etiladi.
4. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot sharoitiga o'tish jarayonlari boshlangan bo'lsada, ushbu yo'nalishda qator ko'rsatkichlarning statistikasi yuritilmasligi mintaqalarda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning haqiqiy holati to'g'risida ma'lumotlar olish va xulosa chiqarishda to'siq bo'lmoqda. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish sharoitida barcha statistik ma'lumotlar yuritilishi, ularning ochiqligini ta'minlashni joriy qilish taklif qilinadi.
5. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning eng birlamchi va maqbul yo'nalishlari sifatida 4 ta yo'nalish: oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi transformatsiyasi, yerdan foydalanishni va uni muhofazalashni oqilona tashkil etish, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni qat'iy joriy qilish taklif etiladi.

Yashil iqtisodiyot — bu nafaqat ekologik barqarorlikni, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ham ta'minlovchi muqobil iqtisodiy modeldir. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati dolzarb bo'lib, bu yo'nalishda qonunchilik, institutsional, moliyaviy va texnologik chora-tadbirlarni kuchaytirish talab etiladi. Yashil iqtisodiyot mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Aminov Fazlitdin Baxadirovich – i.f.n., prof. v.b. - Qarshi - davlat texnika universiteti / Аминов Фазлитдин Бахадирович – к.э.н., и.о.проф. Каршинский государственный технический университет / Aminov Fazlitdin Bakhadirovich – prof. acting - Karshi State Technical University**

► f.aminov1930@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-6221-5269>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – 512 b.
- [2]. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme. 2011.
- [3]. Родригес А.М. "Зеленая экономика в контексте проблем устойчивого развития". Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. <https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivo-go-razvitiya>. 2021.
- [4]. Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics], 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.).
- [5]. Vahobov A.V., X.Hojiboqiev Sh.va b. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – T.: Universitet, 2020. – 296 b
- [6]. To'xliyev N. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – T: O'ZME. 2020. 204 b.
- [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019—2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 04.10.2019-yildagi PQ -4477-son Qarori.
- [8]. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy statistik hisobotlari, 2024.